

PREPARATION OF KINDERGARTEN GIRLS 'SHIRT STYLE

Soliyev Azizbek Kamoldinovich,

Senior Lecturer, Department of Design, Namangan Institute of Engineering and Technology

E-mail: azizbek_0789@mail.ru;

Tel.: (+99888)8605656.

Yunusaliyeva Gozaloy Alijon qizi

Namangan Institute of Engineering and Technology, 3rd year student of "Design"

Tel.: (+99899)9167197.

Annotation: Children's age groups are divided into the following classifications: preschoolers up to 3 years old, preschoolers from 3 to 7 years old; junior school age 7 to 11 years.

As children develop, their body composition and body proportions and habits and activities of interest in the appearance and nature of movements change.

Accordingly, taking into account the psychological-physiological and physical development of children at different ages, the range of children's clothing will be diverse in terms of its type, structure, color scheme and decoration. In this regard, children's clothing is designed to suit each age group. The range of clothes for kindergarten girls consists of a variety of dresses, gowns, sundresses, blouses, pants, semi-overalls.

Keywords: Children, age, classification, school, small, development, body proportions, movement, training, psychological-physiological, physical, assortment, sundress, blouse, pants, semi-overalls.

Annotatsiya: Bolalar yosh guruhlari quyidagi klassifikatsiyaga bo'linadi: yasli yoshdagilar 3 yoshgacha, maktabgacha yoshdagilar 3 yoshdan 7 yoshgacha; kichik maktab yoshdagilar 7 yoshdan 11 yoshgacha.

Bolalarning rivojlanishi davomida tana tuzilishi va tana proportsiyasi va tashqi ko'rinishi va harakatlar xarakteri qiziqishlari odatlari va mashg'ulotlari o'zgarib boradi.

Shunga ko'ra bolalarning turli yoshlarida psixologik-fiziologik va jismoniy rivojlanishini hisobga olgan holda bolalar kiyimlari assortimenti o'zining turi, tuzilishi, bichim ranglari bezatilishi jihatidan turli-tuman bo'ladi. Shu munosabat bilan bolalar kiyimlari har bir yosh guruhiga mos holda loyihalanadi. Bog'cha yoshidagi qiz bolalar kiyimlarining assortimenti turli ko'ylaklar, halatlar sarafan, kofta, shim, yarim kombinzonlardan iboratdir.

Kalit so'zlari: Bolalar, yosh, klassifikatsiya, maktab, kichik, rivojlanish, tana proportsiya, harakat, mashg'ulot, psixologik-fiziologik, jismoniy, assortiment, sarafan, kofta, shim, yarim kombinzonlar.

Bog'cha yoshidagi bolalar ko'p harakat qilganligi sababli kiyimlar qulay sodda, kiyish va yechish uchun oson bo'lishi kerak. Ko'proq to'g'ri va pasti kengaygan shakllar ishlatiladi. Vishovka, mag'iz, tesma, to'r, ablikatsiyalar esa bolalar kiyimiga turli tumanlik bag'ishlaydi.

Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi bichimlarining turli bo'lishi bilan ajralib turadi.

Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi asosan paxta tolali gazlamadan tikiladi. Paxta tolali gazlamalar namlikni oson yutadi va tez quriydi, yaxshi yuviladi, dazmol qilishda yuqori haroratga chidamli. Shuning uchun bu turdagi gazlamalardan bolalar kiyimlarini tikishda keng foydalaniladi.

Ko'ylak paxta tolali gazlamadan tikilib, yoqa o'mizi dumaloq yoqasiz, yengsiz, bel chizig'idan qirqma bo'lib ort bo'lak o'rta chizig'idan taqilma ishlanadi. Old va ort bo'lak rel'ef qirqim orasiga qo'yma burma tikiladi. Burmaga yig'ilgan yubka bel chizig'idan ko'ylak yuqori qismiga ulanadi. Ko'ylak yoqa o'mizi, yeng o'mizi, burmali qo'yma qirqimi va etak qirqimi asosiy gazlama rangiga mos mag'iz bilan ishlanadi. Ko'ylakni bezash uchun old bo'lak o'rta qismiga applikasiya tikiladi. Bel qismidan belbog' bilan bog'lanadi.

Tavsiya etilayotgan ko'ylak o'lchovi 104-30;

Qomat o'lchamlari:

Ko'ylak uzunligi -50 sm

Ko'krak aylanasi –30 sm

Bo'yin aylanasi –13,5 sm

Yelka kengligi –9 sm

Ort bo'lak belgacha uzunligi –26 sm.

Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi asos chizmasini chizish va model chiziqlarini o'tkazish

Asosiy ish andozalariga texnik talablarga muvofiq quyidagi belgilar qo'yiladi:

gazlamaning bo'ylama yo'nalishini ifodalovchi chiziq-tanda ipi yo'nalishi;

bo'ylama yo'nalishdan chetga chiqish chiziqlari;



uloq tushadigan joylarda ularning minimal va maksimal kengligini ko'rsatuvchi chiziqlar;


bir-biriga ulanadigan bo'laklarning juftlashtiriladigan joylaridagi kontrol kertiklar.

Ish andozalarida kesish aniqligidan yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlarni ko'rsatib qo'yish maqsadga muvofiq.

Kimimning nihoyat darajada aniq bichilishi talab qilinadigan joylarida (yoqa o'mizi, yelka ziylari, yeng o'mizi, yeng boshi) yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar $\pm 0,1$ sm ga teng.

Kiyimlarning ko'pchiligi harakatchan to'rsimon strukturali gazlamadan tikiladi. Kiyish jarayonida gazlama strukturasini o'zgarib kiyimning formasi buzilishi mumkin. Buni oldini olish uchun kiyim bo'laklarini shunday bichish kerakki asosiy cho'zuvchi kuchlar gazlamaning tanda iplari bo'ylab yo'nalsin. Buning uchun kiyimning har bir bo'lakida tanda ipining yo'nalishi va bu yo'nalishdan yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar ko'rsatiladi. Tanda ipi yo'nalishidan chekli chetga chiqishlar material tolasining tarkibiga, strukturasiga, uning to'qilish zichligiga, kimyomning konstruksiyasi va vazifasiga bog'liq.

Bazis setka		
Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi asos chizmasinin g bazis setkasini chizish.		Ko'ylak kengligi va uzunligi. AVSD to'g'ri to'rtburchak chizamiz. AD va VS ko'ylak uzunligi 50 sm, va AV va DS (ko'krak aylanasi plyus 8 sm) 30+8 sm ko'ylak kengligi bo'ladi. Yeng o'miz chuqurligi: A nuqta pastga 16 sm va G nuqta belgilaymiz. (ko'krak aylanasi 1/3 bo'lagiga plyus 6 sm) $30:3+6=16$ sm. G nuqta o'nga chiziq chizamiz VS chizig'igacha va G₁ nuqta belgilaymiz. Bel chizig'i. A nuqta pastga 2,6 sm o'lchab T nuqta belgilaymiz (orqa belak belgacha uzunligi o'lchov bo'yicha). T nuqta o'nga to'g'ri chiziq chizamiz VS chizig'igacha va T₁ nuqta belgilaymiz. Orqa kengligi. G nuqta o'nga 14 sm o'lchab G₂ nuqta belgilaymiz (ko'krak aylanasi 1/3 bo'lagiga plyus 4 sm) $30:3+4=14$ sm. G₂ nuqta tepaga chiziq chizib G nuqta belgilaymiz. Yeng o'miz kengligi. G₂ nuqta o'nga 9,5 sm G₃ nuqta belgilaymiz (ko'krak aylanasi 1/4 bo'lagiga plyus 2 sm) $30:4+2=9,5$ sm. G₃ nuqta tepaga chiziq chizib G₁ nuqta belgilaymiz.
Modellashtirish		
Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi old va ort bo'laklariga model chiziqlarini o'tkazish.		Modelga asosan old va ort bo'laklarga rel'ef chiziqlari yelka o'rta nuqtasidan bel chizig'igacha qiya perpendikulyar o'tkaziladi. Ort bo'lak yubka bel va etak nuqtalarini burma uchun 8-10 sm kengaytiriladi. Old bo'lak yubka bel va etak nuqtalarini burma uchun 10-12 sm kengaytiriladi.

2. Qo'yma burmani modellash.		Ko'ylak old bel chizig'idan yelka o'rta nuqtasi orqali ort bo'lak bel chizig'igacha bo'lgan oraliq o'lchab to'g'ri chiziq chiziladi. Chizilgan to'g'ri chiziqning o'rtasidan 8-10 sm li perpendikulyar tushiriladi. To'g'ri chiziq nuqtalari perpendikulyar uchki nuqtasi bilan birlashtiriladi. Qo'ymada burma hosil qilish uchun bir nechta qirqim orqali qo'shimchalar beriladi.
------------------------------	---	--

Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi bo'laklari andoza bo'yicha bichiladi. Andoza tayyorlashdan oldin kiyim bo'laklarining loyiha chizmasi chiziladi. So'ngra kiyim orqa va oldi bo'laklarining yubka yon qirqimlarining bir-biriga ulanadigan zixlari o'zaro mos kelishi tekshiriladi. Shu tarzda aniqlangan chizmalarda choklarga qabul qilingan texnologik va texnik shartlarga muvofiq chok haqqi belgilanadi. Andoza qalinligi 0,9-1,62 mm keladigan karton qog'ozdan tayyorlanadi. Andoza kiyim konstruksiyasining chizmasi bo'yicha tayyorlanadi. Bu andozalarda chok haqqi kiyim etaklarini qayirib bukish, ortiqcha joylarini kesib tashlash haqlari albatta hisobga olingan bo'ladi. Bo'laklarning chetini qayirib bukish haqqi gazlamaning qalinligiga hamda uzal konstruksiyasiga bog'liq bo'lib me'yoriy texnik hujjatlarda ko'zda tutiladi. Asosiy andozalar ishlab chiqilgandan keyin bo'laklarining juftlashtiriladigan konturlari tekshirib ko'riladi.

Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi bo'laklarida tanda ip yo'nalishi va undan chetga chiqish.

Jadval №2

Bo'lak nomi	Tanda ipi yo'nalishi	Mumkin bo'lgan chetga chiqish %
1. Old o'blak o'rta qismi	Bo'lak o'rta bo'y chizig'i yo'nalishiga parallel chiziq	1,0
2.. Old bo'lak yon qismi	Yon qismlarda o'rta qism ip yo'nalishi bilan mos tushadi.	1,0
3. Ort bo'lak o'rta qismi	Bo'lak o'rta bo'y chizig'i yo'nalishiga parallel chiziq.	2,0
4. Ort bo'lak yon qismi	O'rta qismida bo'lak o'rta chizig'iga parallel chiziq. Yon qism bo'laklarida o'rta qism bo'laklari asos ipiga parallel.	2,0
5. Yubka old va ort bo'lak	Bo'lak o'rta bo'y uzunligi yo'nalishidagi to'g'ri chiziqqa parallel.	3,0
6. Belbog'.	Bo'lak o'rta bo'y uzunligi yo'nalishidagi chiziqqa parallel	2,0
7. Qo'yma burma	Modelga qarab aniqlanadi	

Bo'laklar spetsifikatsiyasi

Jadval №3




Bo'lakl nomi	Belgisi	Soni		Simmetriya belgisi
		Andozada	Bichiqda	
1. Ort bo'lak o'rta qismi	01	1	2	+
2. Ort bo'lak yon qismi	02	1	2	+
3. Old bo'lak o'rta qismi	03	1	1	-
4. Ort bo'lak yon qismi	04	1	2	+
5. Yubka ort bo'lagi	05	1	1	-






6. Yubka old bo'lagi	06	1	1	-
7. Qo'yma burma	07	1	2	+
8. Belbog'	08	1	1	-

Izoh: «+» -simmetrik bo'lak

«-» -simmetrik bo'lmagan bo'lak

TYEXNOLOGIK XARITA

Texnol ogiya asosida faoliyat turlari	Tavsiya etiladigan moslama uskunalar	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I	II	III	IV
1. Ort bo'lak			
1.1. Ort bo'lak o'rta qismi.	Kalka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich.		Bo'lak qirqimlari: yoqa o'mizidan 0,5-0,7 sm; yelka qirqimidan 1,0-1,5 sm; rel'ef qirqimidan 1,0-1,2 sm; o'rta qirqimidan 1,0-1,5 sm; bel qirqimidan 1,0-1,5 sm chok haqqi qoldirib chizib chiziladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.
1.2. Ort bo'lak yon qismi.	Kalka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich.		Bo'lak qirqimlari: yelka qirqimidan 1,0; yeng o'mizidan 0,7 sm; yon qirqimidan 1,0 sm; rel'ef qirqimidan 1,0 sm; bel qirqimidan 1,0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.
2. Old bo'lak			
2.1. Old bo'lak o'rta qism	Kalka qog'oz, shakldor chizg'ich, qalam, chizg'ich, o'chirg'ich.		Bo'lak qirqimlari: yoqa o'mizidan 0,5-0,7 sm; yelka qirqimidan 1,0-1,5 sm; rel'ef qirqimidan 1,0-1,2 sm; bel qirqimidan 1,0-1,5 sm chok haqqi chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.

2.2. Old bo'lak yon qismi.	Kalka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich.		Bo'lak qirqimlari: yelka qirqimidan 1,0-1,5 sm; yeng o'mizidan 0,5-0,7 sm; yon qirqimidan 1,0-1,5 sm; rel'ef qirqimidan 1,0-1,2 sm; bel qirqimidan 1,0-1,5 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.
3. Yubka			
3.1. Yubka ort bo'lagi	Kalka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich.		Bo'lak qirqimlari: bel chizig'idan 1,0-1,5 sm; yon qirqimidan 1,0-1,5 sm; etak qirqimidan 0,5-0,7 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.
3.2. Yubka old bo'lagi	Kalka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich.		Bo'lak qirqimlari: bel chizig'idan 1,0 sm; yon qirqimidan 1,0 sm; etak qirqimidan 0,7 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.
4. Qo'yma burma			
4.1. Qo'yma burma	Kalka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich.		Bo'lak qirqimlari: rel'ef chokiga birlashtiruvchi qirqimidan 1,0-1,2 sm; qo'yma chekka qirqimidan 0,5-0,7 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.
5. Belbog'			
5.1. Belbog'	Kalka qog'oz, qalam, chizg'ich, o'chirg'ich.		Belbog' qirqimlari atrofidan 0,5-0,7 sm chok kengligi chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar asosida andoza kesiladi. Andozada №2 jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va №3 jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Komilova X.X., Vohidova U.A. "Loyihalash". "Fan va texnologiya". Toshkent. 2017 y.

2. Котлер Ф., Келлер К.. Маркетинг, менеджмент: пер. с англ.-СПб.: Питер, 2009
3. Kamilova X.X, Xamraeva N.K. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. Toshkent.: 2003 y.
4. Xasanboyeva G.K., Shomansurova M.Sh.. «Kompazitsiya asoslari» T. 2009 yil.
5. Abdullayeva Q.M.. “Tikuvchilik buymlarini loyihalash va modellashtirish asoslari”. “O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi”. Toshkent. 2006 y.
6. Kamilova X.X, Yunusxodjayeva X.. “Materiallarni konfeksionlash”. Toshkent. 2014 y.
7. Жабборова М.Ш. “Тикувчилик технологияси” Т., Ўзбекистон, 1994 й.